

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI

UDK: 338.48:658.01 (575.1)

NAJMIDDINOV SULTON NURALI O‘G‘LI

TURIZM SOHASINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

71010401– “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)”
mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan




DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: I.f.n., dots. S.Safayeva

Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “ „Turizm va servis“ ”
kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

10 -sonli bayonnoma “ 18 ” 04 2023 y.

Kafedra mudiri:	I. Axmedov	 imzo	<u>05.05.2023</u> sana
Ilmiy rahbar:	S. Safayeva.	 imzo	<u>03.05.23</u> sana
Talaba:	S. Najmiddinov	 imzo	<u>03.05.23</u> sana

Dissertatsiya mavzusi Magistratura bo‘limida 2021 yil “ 20 ” dekabr

№ 808-T raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Annotatsiya

Turizm industriyasi dunyo hamjamiyatida tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ushbu sohada band bo'lgan xodimlarning malakasi va bilimiga bog'liq. Ushbu magistrlik dissertatsiyasining maqsadi turizm tashkilotlari boshqaruvida duch keladigan muammolarni o'rganish va strategik samaradorligini oshirish yo'llarini taklif qilishdir. Tadqiqotda ma'lumotlarni to'plash uchun xalqaro tajriba o'rgangan holda tahlil va intervyu o'z ichiga olgan aralash usullar tadqiqot usuli qo'llanildi.

Tadqiqotda turizm industriyasida boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha bir qancha tavsiyalar taklif etilgan.

Birinchidan, malakali kadrlarni samarali o'qitish usuli sifatida trening va qisqa muddatli qayta tayyorlov ta'limidan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, strategik rejalashtirishning mukammal loyihalar orqali tashkillashtirishda innoparklar amalga oshirishi muhim.

Uchinchidan, moliyaviy samaradorligi oshishi avvalo turistlarning oqimiga bog'liq, demak turistlarning qoniqishini yuqori darajada ko'tarilishi bu ularga keng imkoniyat yaratish ya'ni turistlar uchun bank ximatlari to'liq foydalanish mumkin bo'lgan mobil ilova dasturlarini yaratish vaqti keldi.

To'rtinchidan, jahon tajribasidan o'rgangan holda "Tourism cloud management" tizimini O'zbekiston sharoitida tadbiq etish mumkin.

Nihoyat, turistik tashkilotlarni ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasini baholovchi "Nazorat inspeksiyalari" tashkil etish.

Dissertatsiya ishimda turizm industriyasida strategik rejalashtirish turizm biznesi va butun sanoatning muvaffaqiyati uchun zarur, degan xulosaga kelinadi. Taklif etilayotgan tavsiyalar turistik tashkilotlarga strategik rejalashtirishda duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda va turistik tashkilotlarni ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasini oshirishda yordam berishi mumkin. Ushbu tadqiqot turizm sohasida turistlarning qoniqishi oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish orqali mavjud dasturlar va adabiyotlar rivojiga hissa qo'shishiga

umid qilaman.

Kalit soʻzlar: *Strategik rejalashtirish, Tourism cloud management, innopark, turizm boshqaruvi va mobil ilova.*

Abstract

Tourism industry is one of the fastest growing sectors in the global community, and its success depends largely on the skills and knowledge of its employees. The objectives of this master's thesis are to propose ways to identify opportunities and strategic improvements in tourism management. The research used an emergent mixed method of survey and interview with tourism professionals to collect data.

The study proposes several recommendations to improve the effectiveness of management in the tourism industry.

First, it is recommended to use training and short-term retraining as a method of effective training of qualified personnel.

Secondly, it is important that innoparks implement strategic planning through excellent projects.

Thirdly, the increase in financial efficiency depends primarily on the flow of tourists, which means that the high level of satisfaction of tourists will create a wide opportunity for them.

Fourthly, it is possible to apply the "Tourism cloud management" system in the conditions of Uzbekistan, having learned from the world experience.

Finally, organization of "Control inspections" that assess the quality level of services provided to tourist organizations.

My dissertation concludes that strategic planning in the tourism industry is essential to the success of the tourism business and the industry as a whole. The proposed recommendations can help tourism organizations to overcome the difficulties they face in strategic planning and to improve the quality of services provided to tourism organizations. I hope that this study will contribute to the development of existing programs and literature by providing practical recommendations for improving tourist satisfaction in the tourism industry.

Keywords: *strategic planning, Tourism cloud management, innopark, tourism management and mobile programm.*

TURIZM SOHASINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	6
Keltirilgan jadvallar ro‘yhati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yhati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
KIRISH.....	10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	10
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	13
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	14
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	15
Tadqiqot ilmiy yangiligi.....	15
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	16
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	18
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	18
1.2. Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	19
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	23
II BOB. METODOLOGIYA.....	28
2.1. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	28
2.2. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	29
2.4. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi..	30
2.5. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	31
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	32
3.1. Turizm boshqaruvini takomillashtirishda ta’sir etuvchi omillar tahlili	32
3.2. Turizm boshqarishning tarkibiy tuzilishi, samadorligi va turistlarning qoniqishini o‘rganishdagi ahamiyati.....	38
3.3. “Tourism cloud management” tizimini O‘zbekiston sharoitida tadbiq etish mohiyati.....	43
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	52
XULOSA.....	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	60
ILOVALAR.....	64

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Annotatsiyada ta'kidlab o'tganimizdek, Turizm tarmog'i dunyo mamlakatlar iqtisodiyotining muhim sohasi bo'lib, yuqori darajada o'sib bormoqda. so'nggi o'n yillikda raqobatbardosh kurashda firmaning raqobat kurashida omon qolish imkonini beradigan strategik xatti-harakatlarning ahamiyati keskin o'sdi. Hozirgi kunda nafaqat poytaxtimizda balki viloyatlarda ham turli hil sayohat agentliklari, tur mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mavjud. Tur firmalar soni ortib bormoqda endilikda bu firmalarni boshqarish, malakali mutaxasislarni jalb etish talab qilinadi. Biroq, turizm sanoatining dinamik tabiati bilan oliy ta'lim muassasalari o'z talabalari va turistlar ehtiyojlariga javob beradigan samarali turistik mahsulotlarini ishlab chiqishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu qiyinchiliklar resurslarning yetishmasligi, imkoniyatdan foydalanish uchun cheklangan vaqt va strategik rejalashtirishdagi to'g'ri shaklantira olmasliklarni o'z ichiga oladi. Natijada, tur firmalarning past investitsiya rentabelligini boshdan kechirishi mumkin, bu esa pirovardida ularning turizm sanoatidagi muvaffaqiyatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Rivojlangan davlatlarning turizm sohasiga strategik rejalashtirish tizimidagi mavjud ba'zi kamchiliklar ham ahamiyatli bo'lsada, endi rivojlanayotgan davlatlarning bu tizimdagi yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklari muhimroq ahamiyatga ega. Chunki turizm boshqaruvi va kadrlar bilan bog'liq muammolar ijobiy tomonga o'zgarmasa, bu sohaning mamlakat iqtisodiyotida alohida o'rin egallashi qiyinlashadi. Sababi xizmat ko'rsatish sifati xalqaro standartlarga mos kelmasligi yoki aniq reja asosida turistlar uchun turistik mahsulotlarni shakllantirmaslik, qolaversa xodimlar malakasi pastligi sayyohlarning mamlakatimizdagi tashrifi davomida ularda salbiy ta'surotlar ega bo'lishi mumkin va bu davlatimizda turistik sohaning rivojiga ta'sir etadi, soha rivojini sekinlashtiradi, eng e'tiborli jihati shundaki, soha rivoji uchun yaratilgan va